

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



O‘ZBEKISTON TARIXI
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220300 – Tarix

Fan/modul kodi UZ 1128 ✓	O'quv yili 2024-2025 ✓	Semestr 2 ✓	ECTS - Kreditlar 6 ✓	
Fan/modul turi Majburiy ✓	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbekiston tarixi ✓	90 ✓	90 ✓	180 ✓
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – Fanning maqsadi O'zbekiston tarixini fan sifatida yoritish va o'quvchi-talabalar diqqatini uzoq va yaqin o'tmishga hamda hozirda bo'layotgan voqea-hodisalarga qaratish bilan birga ularning dunyoqarashlarini, ilmiy-nazariy tafakkurlarini takomillashtirish, o'tmish va hozirgi zamondagi voqea va hodisalarga ilmiy xolislik va tarixiy ob'ektivlik tamoyillariga amal qilgan holda tarixiy voqealikka munosabat bildiradigan hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli komil insonni tarbiyalashdan iborat. Fanning vazifasi - Fanning vazifasi - talabalarda xalqimizning madaniy, ma'naviy merosiga, ilg'or an'analari, milliy qadriyatlari, axloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo'shgan hissalaridan faxrlanish va ularning munosib davomchilari bo'lishni tushuntirish. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-2-mavzu. O'rta asrlar tarixiga kirish. O'rta Osiyoda Eftalitlar davlati. Mavzuning tarixshunosligi. Xioniyalar, Kidariylar, Afrig'iyalar, Eftalitlar. Eftalitlarning O'rta Osiyoga yurishi. O'rta Osiyoda Eftalitlar davlatining tashkil topishi. Eftalitlar davlati hududlari, aholisining etnik tarkibi. Ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar. Yerga egalik munosabatlarining shakllanishi. Mazdak qo'zg'oloni. Yangi sun'iy sug'orish inshootlarining barpo qilinishi. "Dehqon" qarorgohlari, ular atrofida yangi shaharlarning paydo bo'lishi. Dehqonchilik va hunarmandchilik. Ichki va tashqi savdo. Pul munosabatlari. Me'morchilik, tasviriy san'at. Jartepa, Bolaliktepa rasmlari. Diniy e'tiqodlar, an'analar. 3-4-mavzu. O'rta Osiyo xalqlari Turk xaqonligi tarkibida (VI - VIII asr boshlari). Mustaqil hokimliklarning tashkil topishi - Sug'd ixshidlari, Toxariston, Farg'ona, Choch va Eloq. Mavzuning tarixshunosligi. Turk xaqonligining tashkil topishi. Turklarning g'arbga yurishlari. Sosoniylar bilan Turklar ittifoqi. Eftalitlar va turklarning to'qnashuvi. Eftalitlar mag'lubiyati. O'rta Osiyoning Turk xaqonligi tasarrufiga o'tishi. Turk - Eron munosabatlarining keskinlashuvi. Vizantiya bilan diplomatik munosabatlar. Turk xaqonligining hududlari, aholisi etnik tarkibi. Mamlakatni boshqarish usuli. Xaqon - davlat boshlig'i. Lavozimlar, mustaqil hokimliklar. Turk xaqonligining g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linib ketishi. Obruy qo'zg'oloni va uning bostirilishi. Budunlar, qora budunlar, beklar,			

hunarmandlar. savdogarlar. Aholining asosiy mashg'uloti: dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik. Ichki va tashqi savdo. Karvon savdosi. "Buyuk ipak yo'lida" yangi yo'llar va yangi imkoniyatlar. Shaharlar. Qishloqlarda "ko'shk", "qasr", "qo'rg'on", "qo'rg'oncha"larning qad ko'tarishi. Me'morchilik, tasviriy san'at. Xorazm, So'g'd, Toxariston yozuvlari. Turk, Enasoy-Urxun yozuvlari. Oltoy yodnomasi va kultakin bitiklari. Diniy qarashlar; Zardushtiylik, budda, nasora, moniy va qam (shomonlik). Turk xaqonligining inqirozga yuz

5-mavzu. Arablarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi va hukmronligining o'rnatilishi

Arab halifaligining tashkil topishi va Movarounnahr yerlarining arab bosqinchilari tomonidan istilo qilinishi. Arabistonyarim orolida Arab halifaligining tashkil topishi. Arablarning qo'shni hududlarga tajovuzkorlik yurishlari. O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishining ikki davri.

6-mavzu. O'rta Osiyoda arablarning mustamlakachilik siyosati va unga qarshi ozodlik kurashlari

Arab yozuvi, arab tilining davlat maqomini olishi, Boshqaruv. Soliqlar: "Jizya", "Xiroj", "Zakot" va boshqalar. Islomning majburan mahalliy aholiga qabul qildirilishi. Moddiy boyliklarning halifalik markaziga tashib kqilinishi. Aholining iqtisodiy-ijtimoiy ahvolining yomonlashuvi. So'g'ddagi 720-722 yillardagi Gurak va Divashtichlar boshchiligidagi qo'zg'olonlar. Ko'zg'olonning bostirilishi, 723 - 728 yillardagi Farg'ona, Shosh, Nasaf, Xuttolon, So'g'dda ko'tarilgan ko'zg'olonlar. 736-737 yillarda Toxariston va So'g'dda ko'tarilgan qo'zg'olonlar. Arab mustamlakachilarining mahalliy aholi bilan yaqinlashishi. Halifalikning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi keskin o'zgarishlar. Sulolaviy kurashning boshlanishi. Ummaviylarga qarshi Abu Muslim boshchiligidagi ko'zg'olon va uning ahamiyati. Mahalliy xalq axvolining og'irlashuvi. Muqanna boshchiligidagi "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni. Qo'zg'olonning yengilishi sabablari va oqibatlari.

7-mavzu. O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi.

Tohiriylar va Safforiylar davlati.

Tohiriylar davlatining paydo bo'lishi, Davlat boshqaruvi. Soliq siyosati. Xalq axvolining og'irlashuvi. Foziylar harakati. (IX asr 60 yillari) Safforiylar davlatining tashkil topishi. Mavzu tarixshunosligi.

8-mavzu. Somoniylar davlatining tashkil topishi va hukmronligi.

Movarounnahrda mustamlakachilik zulmiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan Rofe ibn Lays boshchiligidagi 806 yil qo'zg'oloni. Movarounnahrda somoniylarning siyosiy hayotga kirib kelishi: Nasr Somoniyning Movarounnahrni barcha viloyatlarini birlashtirish uchun ko'rgan tadbirlari. Ismoilning Buxoroga noib etib tayinlanishi. Uning mustaqil siyosat yuritishi. Ismoil Somoniy - yirik davlat arbobi.

9-mavzu. Somoniylar davrida davlat boshqaruvi tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Uning davlatni boshqarish va harbiy sohadagi islohotlari. Ismoil Somoniyning ko'chmanchilar ustiga qarshi yurishlari. Somoniylar davlatining markaziy va viloyat boshqarmalari. Somoniylar davlatida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Qishloq ho'jaligi, yer egaligi, hunarmandchilik, konchilikning rivojlanishi. Ichki va tashqi savdo. Pul muomalasi. Ichki ziddiyatlar taxt uchun o'zaro kurashlar. Somoniylar davlatining zaiflashuvi va inqirozi.

10-mavzu. Qoraxoniylar davlati.

Mavzuning tarixshunosligi. Yettisuv va Qashg'arda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Qarluqlar, jigilar (chigil), yag'molar, tuxsi va arg'ullarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti. X asrda bu qabilalarning o'troq dehqonchilikka o'tishi. Yettisuv va Qashg'ar qabilalarining Abdulkarim (955-956 yillarda vafot etgan) ismi bilan mashhur bo'lgan Satuk tomonidan birlashtirilishi. Qoraxoniylarning Movarounnahrda hujumi. Xorazm davlati. Qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasidagi munosabatlar. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Markazlashtirilgan davlat tizimining yemirilishi. Udel tizimi asosida mamlakatni boshqaruv. Soliqlar, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo. Qoraxoniylar davlatining ikki mustaqil davlatga ajralishi. Qoraxoniylar va Saljuqiylar o'rtasida munosabatlar.

11-mavzu. G'aznaviylar davlati

G'aznada mustaqil hokimlik o'rnatish uchun harakat. Alptakin-G'azna hukmdori. (962 y.) Sobuqtakin hukmronligi (977-997 y.). Maxmud G'aznaviy (998-1030 y.) g'aznaviylar davlatining asoschisi. Maxmudning Qoraxoniylar bilan munosabati. Maxmud G'aznaviy va Saljuqiylar. g'azovot shiori ostida shimoliy Hindistonga yurishlar. Sulton Ma'sud hukmronligi.

12-mavzu. Saljuqiylar davlati

G'aznaviylar va Saljuqiylar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi. Dandanakon (1040 i.) yonidagi jang. Sulton Ma'sud qo'shinining yengilishi g'aznaviylar davlatining inqirozi. Saljuqiylar harakatining vujudga kelishi. Saljuqiylar va g'aznaviylar munosabatlari.

13-mavzu. Xorazmshoxlar davlatining tashkil topishi

"Xorazmshox" unvonining tiklanishi. Xorazm mustaqilligi uchun kurash. Alovuddin Otsiz (1127-1156) moxir diplomat, g'ayratli lashkarboshi. Elarslon (1156-1172) davrida Xorazmshoxlar davlati.

14-mavzu. Xorazmshoxlar ichki va tashqi siyosati hamda boshqaruv tizimi.

Alovuddin Takash (1172-1200) hukmronligi davrida Xorazmning kengayishi.

Mamlakatda iqtisodiy yuksalish, shaharlarning gullab-yashnashi. Urganchning xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan shaharga aylanishi. Xorazmshoh Takish tomonidan qoldirib ketilgan ulkan davlat uning vorisi Qutbiddin Muhammad tomonidan davom ettirishi, G'uriylar va qoraxitoylar bilan munosabatlari. Davlat boshqaruvi va qo'shin tuzilishi.

15-16-mavzu. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh munosabatlari.

Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga istilochlik yurushlari

Mo'g'ul davlatining tashkil topishi. CHingizxon va Xorazmshoh davlatining diplomatik munosabatlari. Movarounnahr mo'g'ul bosqinining amalga oshirilishi jarayonlari. Jaloliddin Manguberdi jasorati. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik ahvol. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmidagi madaniy hayot.

17-mavzu. Jaloliddin Manguberdi - Vatan qahramoni.

Tariximizdagi ulug' zotlardan biri - mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan buyuk sarkarda, mardlik timsoli bo'lmish Jaloliddin Manguberdi faoliyati. Manguberdi jasorati, Parvon jangi, Sind daryosi bo'yidagi jang. Istilo oqibatlari. Jaloliddin davlati, Basra yaqinidagi jang, Ozarbayjon zabt etilishi, ichki ziddiyatlar. Jaloliddin Manguberdi haqida yaratilgan tarixiy asarlar, mustaqillik yillarida Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlanishi.

18-mavzu. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Chig'atoy ulusi, soliq turlari, Mahmud Torobiy qo'zg'oloni. pul islohoti, yer egaligi, Chig'atoy ulusining bo'linishi, madaniy hayot. Chig'atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy hayot soliq turlari. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmidagi madaniy hayot.

19-20 -mavzu. IX – XII asrlarda Movarounnahrda fan va madaniyat.

IV-VII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning aholi madaniy hayotiga ta'siri. Sharqda uyg'onish davri. Bog'dod va Xorazmda "Baytul - xikma" - donishmandlar uyi. Islom sharqining Fanlar Akademiyasini tashkil topishi. V - VII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda me'morchilik. San'at rivojining yangi bosqichi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan, Marv shaxarlarida yangi binolarning qad ko'tarishi. Noyob me'morchilik yodgorliklari: Ismoil Somoniy, Arab ota, Mirsaid Baxrom maqbaralari. Nomozgoh Minorai Kalon, Vobkent, Jarqo'rg'on minoralari. Suv inshootlari: suv omborlari - bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar, qorizlarning barpo qilinishi. To'g'on qurilishi.

21-mavzu. IX-XII asrlarda islom dini va tasavvuf tariqatlari. Buyuk muhaddis va dinshunos olimlar.

Islom madaniyati, hadislar. Islomshunos va hadisshunos buyuk allomalar so'fiylik ta'limoti namoyondalari. So'fiylik ta'limotiningkeng tarqalishi. Xattotlik san'ati. Me'moriy naqsh uslubi. Musiqa san'ati. Cholg'u asboblarning hilmakilligi.

22-mavzu. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.

O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi. O'zbek etnosining ko'p etnik qatlamlilik masalasi. Mahalliy tub joyli aholi va uning tili masalasi. Turk va turkiy etnonimlar. Migratsiya jarayonining etnogeneza tutgan o'rni. O'zbek etnogenezining boshlanishi va yakuniy nuqtasi.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar Tarix fanida innovasiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'rta asrlar tarixiga kirish. Xioniylar, Kidariylar, Afrig'iylar davlatlari.
2. O'rta Osiyoda Eftalitlar davlati va madaniy hayoti.
3. O'rta Osiyo xalqlari Turk xaqonligi tarkibida (VI - VIII asr boshlari).
4. Mustaqil hokimliklarning tashkil topishi - Sug'd ixshidlari, Toxariston, Farg'ona, Choch va Eloq.
5. Arablarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi va hukmronligining o'rnatilishi.
6. O'rta Osiyoda arablarning mustamlakachilik siyosati va unga qarshi ozodlik kurashlari.
7. O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlati.
8. Somoniylar davlatining tashkil topishi va hukmronligi.
9. Somoniylar davrida davlat boshqaruvi tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
10. Qoraxoniylar davlati.
11. G'aznaviylar davlati.
12. Saljuqiylar davlati.
13. Xorazmshoxlar davlatining tashkil topishi.
14. Xorazmshoxlar ichki va tashqi siyosati hamda boshqaruv tizimi.
15. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh munosabatlari.
16. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga istilochlik yurushlari.
17. Jaloliddin Manguberdi - Vatan qahramoni.
18. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

19. IX-XII O'rta Osiyolik buyuk qomusiy allomalarning insoniyat tamadduni rivojiga qo'shgan ulkan hissasi.

20. Xorazm Ma'mun akademiyasida ilm-fanning rivojlanishi.

21. IX-XII asrlarda islom dini va tasavvuf tariqatlari. Buyuk muhaddis va dinshunos olimlar.

22. Me'morchilik va san'at.

23. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.
2. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda yer egaligi munosabatlaridagi o'zgarishlar
3. Xioniyalar davlati
4. Kidariylar
5. Afrig'iyalar davlatlarining tashkil topishi
6. O'rta Osiyoda Eftalitlar davlati
7. Eftalitlar davri madaniyati
8. O'rta Osiyoda Turk xoqonligi hukmronligining o'rnatilishi
9. Turk xoqonligida boshqaruv tartibi
10. Turk xoqonligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot
11. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi mustaqil hokimliklar
12. Arablarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi va hukmronligining o'rnatilishi
13. Movarounnahrda arablarning olib borgan siyosati
14. Movarounnahrda arablarga qarshi ozodlik kurashlari
15. Arablar hukmronligi davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat
16. Arab xalifaligining parchalanishi va uning O'rta Osiyoga ta'siri
17. O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi
18. Tohiriylar davlati
19. Safforiylar davlati
20. Somoniylar davlatining tashkil topishi
21. Somoniylar davlatida boshqaruv tartibi
22. Somoniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti
23. Qoraxoniylar davlati va uning siyosiy tizimi
24. Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik hayoti
25. G'aznaviylar davlati

	26. Saljuqiylar davlati 27. Anushtagin-Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi 28. Anushtagin-Xorazmshohlar davlatida siyosiy munosabatlar 29. Anushtagin-Xorazmshohlar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy hayot 30. Anushtagin-Xorazmshohlar davlatining madaniy hayoti 31. O'rta Osiyoda harbiy ishning takomillashuvi (VI-XII asrlar) 32. IX – XII asrlarda Movarounnahrda fan va madaniyat 33. IX – XII asrlarda din 34. So'fiylik ta'limoti: paydo bo'lishi va asosiy jihatlari 35. IX – XII asrlarda san'at 36. IX – XII asrlarda me'morchilik 37. Xorazm ma'mun akademiyasi faoliyati 38. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni 39. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabgi taraqqiyot bosqichlari 40. IV – XII asrlarda Movarounnahrda etnik vaziyat
3.	VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - Vatanimizning IV-XIV asrlar davri tarixi, ushbu davrda davlatlarning vujudga kelishidagi shart-sharoidlar, mamlakatimiz hududiga turli qabilalar bostirib kirishlari haqida ilmiy faktlarga asoslangan ma'lumotlar ega bo'lish, O'zbeklarning xalq sifatida shakllanish jarayoni va ushbu asrlarda vatanimiz hududida ro'y bergan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar <i>bilimga ega bo'lishi;</i> - O'zbekiston tarixi IV-XIV asrlarda siyosiy o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan davlatlar, ularning hududiy chegaralari haqida bilimlarga ega bo'lish, ushbu davlatlarning boshqaruvdagi farqlarini tahlil qilishi, ushbu asrlarda fan va madaniyatning shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini bilish <i>ko'nikmasiga ega bo'lishi;</i> O'zbekiston tarixining IV-XIV asrlarda tegishli bo'lgan atamalar va tushunchalarni hamda, siyosiy voqealar xolisona tahlil qila olish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar

	haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savol-javob, yozma ish yoki test topshirishi zarur.
6.	X. Asosiy adabiyotlar: 1. B.J.Eshov, A.A.Odilov "O'zbekiston tarixi" I jild. Toshkent., 2013 2. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. T., "Sharq". 2010 3. A. Sagdullayev "O'zbekiston tarixi 1 jild", "Vneshinvestprom" Toshkent-2019. 4. Normatov O.M. "O'zbek davlatchlik tarixi", "Nazokathon ziyo print" T.,- 2023 y. 5. R.H. Murtazayeva, A.A. Odilov, A.A. Ermetov, K.D. Soipova "O'zbekiston tarixi". "Donishmand ziyosi" Toshkent., 2020 6. Q.Rajabov, F.Amonova, B.Qandov. O'zbekiston tarixi, "Ochun", Toshkent. 2024. 7. Asqarov A.A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent, Universitet, 2011 XI. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent: Sharq, 2000. 2. Bosfort K.E. Musulmon sulolalari. – Toshkent, 2008. 3. Bunyodov Z.M. Anushtagin – Xorazmshohlar davlati (1097-1231). Toshkent: G'. G'ulom nashriyoti, 1998. 4. Bunyodov Z.M. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. Xorazmshohlar davlati. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012. 5. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 6. Абулғози. Шажараи Турк. - Тошкент: Чўлпон, 1990. 7. Sagdullayev A., Aminov B. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. - Toshkent: Akademiya, 2000. 8. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. – Paris. 1996. 9. Kamoliddin Sh. Tha Samanids. The First Islamic Local Dynasty in Central Asia. LAP LAMBERT Academic Publishing. 2011. Axborot manbalari www.pedagog.uz (Respublika pedagogika talim muassasalari portali) www.cspi.uz (Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti) www.edu.uz (O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali) www.unilibrary.uz (Yagona elektron kutubxona axborot tizimi) www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK) www.ziynet.uz - Ziynet axborot-ta'lim resurslari portali
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil "29" dekabr dagi qarori bilan tasdiqlangan

8.	Fan/modul uchun ma'sul: Y.X. Gaffarov - CHDPU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası professori, tarix fanlari nomzodi. Sh.Sh. Parmonov - CHDPU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası o'qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: X.Dj. Xidirov – Termiz davlat pedagogika instituti "Tarix va uni o'qitish metodikasi" kafedrası v.b. professori, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD). O.H. Jaynarov CHDPU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası v.b. dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD).